



JISMONIY SHAXSLAR SOLIQ YUKINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI VA OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada soliq yukini baholash bo'yicha olimlarning turli fikr va qarashlari nazariy jihatdan o'rganilib, muallif tomonidan soliq yuki ko'rsatkichi, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyoti va tartibi, uning amaldagi holati tahlil qilingan hamda soliq to'lovchilarning soliq yuki darajasini baholash va taqsimlash bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq yuki, soliqqa tortish, soliq stavkalari, soliq ko'rsatkichi, faoliyat turlari, daromad manbalari.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОЙ БРЕМЕНИ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Абдутурапов Жасурбек Назимжанович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье с теоретической точки зрения исследованы различные мнения и взгляды ученых на оценку налогового бремени, автором проанализирован показатель налогового бремени, практика и порядок налогообложения физических лиц, его текущее состояние, а также разработаны научные выводы и предложения по оценке и распределению уровня налогового бремени налогоплательщиков.

Ключевые слова: налоговое бремя, налогообложение, налоговые ставки, налоговый показатель, виды деятельности, источники доходов.

FEATURES OF FORMATION AND PROSPECTS OF OPTIMIZATION OF THE TAX BURDEN OF INDIVIDUALS

Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich
Tashkent State University of Economics

Annotation. The article examines various opinions and views of scientists on the assessment of the tax burden from the theoretical point of view, the author analyzes the indicator of the tax burden, the practice and procedure of taxation for individuals, its current stat. In addition, the author has developed scientific conclusions and proposals for assessing and distributing the level of the tax burden of taxpayers.

Keywords: tax burden, taxation, tax rates, tax indicator, types of activities, sources of income.

Kirish.

Davlat uchun asosiy daromad manbai har doim xalqdan soliq tushumlari bo'lib kelgan. Salbiy va ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha ichki va tashqi omillarga eng maqbul javob beradigan soliq tizimi har doim katta foyda keltirgan. Bunday tizim bir vaqtning o'zida davlat va soliq to'lovchilar manfaatlariga javob berishi, hamma uchun mos keladigan "oltin muvozanat" bo'lishi kerak. Anashu nuqtai nazardan soliq yuki har doim dolzarb mavzu bo'lib kelgan va ko'plab tortishuvlarga sabab bo'lgan. Bu uning soliq tizimi hisoblagichi sifatidagi ahamiyatini yana bir bor namoyon etadi desak xato bo'lmaydi.

Boshqacha aytganda, soliq siyosati shunday bo'lishi lozimki, undan soliq to'lovchi xam, davlat byudjeti ham jabr ko'rmasin. Boshqacha qilib aytganda, soliq to'lovchilarda o'zi shundoq ham o'z daromadlarining bir qismini byudjetga o'tkazib berishga bo'lgan ixtiyoriy istakning yo'qligi hamda davlat xarajatlarining boshqa ishonchli manbalari yetarli emasligi vaziyatni naqadar zargarona ko'rinish kasb etishini yaqqol ko'rsatadi.

Soliq yuki, ko'pchilik o'ylaganidek, to'g'ri ma'nodagi og'irlik o'lchovidir. Ya'ni uni to'g'ri ma'nodagi og'irlik o'lchovining birliklari bo'lgan tonna, sentner, kilogramm yoki grammlarda ifodalab bo'lmaydi. Soliq yuki nisbatning ifodasi bo'lganligi uchun koeffitsentda yoki foizda ifodalanadi. Amaliyotda esa uni foizda aks ettirish qabul qilingan. Ko'pchilik hollarda soliq yuki ikki xil tarzda o'lchanadi: birinchisida faqat soliqlarning sof miqdori inobatga olinsa, ikkinchisida soliqlarning tarkibiga boshqa ijtimoiy ajratmalar yoki boshqa maqsadli fondlarga ajratmalar xam qo'shib hisoblanadi. Bular odatda, solik yukini aniqlashdagi nisbatning (kasrning) suratini tashkil etadi. Uning maxraji esa ikkala xolda xam bir ko'rsatkichga – soliq to'lovchi daromadining miqdori (xajmi)ga teng bo'lishi kerak.

Hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Mazkur maqolada jismoniy shaxslarning soliq yuki darajasi, jismoniy shaxslar soliq yukini aniqlash va baholash bo'yicha tahlil natijalari, soliq yukini optimallashtirish va soliq yukining soliq to'lovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash masalalariga e'tibor qaratilgan. Bu soliq to'lovchining haqiqatdagi soliq yukini hisobga olishga va soliq yukini tenglik tamoyillariga muvofiq taqsimlashga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq yuki soliq munosabatlarining ajralmas xususiyati sifatida, birinchi navbatda, xususiy sektorning moliyaviy resurslarini olib qo'yishning ma'lum darajasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida ushbu ko'rsatkichni miqdoriy aniqlash muammolari an'anaviy ravishda ilmiy izlanishlar markazida bo'ladi.

XVII-XVIII asr uyg'onish davrida eng keng tarqalgan va dolzarb hisoblangan xizmatlar almashinuvi nazariyasi – soliqlarning atomistik nazariyasi Fransiyada paydo bo'lgan. Nazariyaning mohiyati shundan iboratki, davlat fuqarolarning hayoti va mol-mulkini ichki va tashqi omillardan himoya qilishi, tartib-intizom, xotirjamlik va ularning erkinligini kafolatlashi uchun fuqarolar o'z daromadlarini davlat bilan bo'lishishlari kerakligi ta'kidlaydi. O'sha vaqtda Sh.Monteske soliq yukini "fuqarolardan qolgan va olingan daromadning nisbatlarini topish orqali davlat xizmatlariga o'z mol-mulkining bir qismini to'lashda ular qolgan qismini himoya qilish kafolatini olishlari yoki undan katta zavq bilan foydalanishlari uchun" ratsionalizatsiya qilish zarurligini ta'kidlagan⁵.

"Soliq yuki" ta'rifining kontseptual va kategorik asoslanishi haqida gapirganda, uni talqin qilish va miqdoriy aniqlashga turli xil yondashuvlarni keltirish mumkin. Shunday qilib, soliq yukining miqdoriy jihatini va uning iqtisodiyotga bosimini birinchilardan bo'lib o'rgangan Yusti, uning iqtisodiy tarkibini makro daraja uchun "byudjet va davlatning milliy daromadi o'rtasidagi nisbat..." deb ta'rifladi. Brauerning so'zlariga ko'ra, soliq yuki "davlat to'g'ridan-to'g'ri aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga yuklaydigan yukdir. Bunday soliq yukining ta'siri soliqqa tortishning og'irligi sifatida belgilanib, bu bir tomondan yukning yuklanishi va soliq to'lovchining to'lov qobiliyati o'rtasidagi munosabatlar bo'lsa, boshqa tomondan soliq majburiyati va uni ishlab chiqarish tomonidan o'tkazish qobiliyati o'rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi, agarki soliq to'lovi ishlab chiqarish xarajatlarining ajralmas qismi bo'lsa."

Zamonaviy adabiyotda soliq yukining ko'plab ta'riflari keltirilgan. Masalan, nufuzli nashrlardan biri "Macmillanning zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi lug'ati"da soliq yuki ("tax burden")ning mohiyati "o'rtacha yoki samarali soliq stavkasi" ("average rate of tax") nuqtai nazaridan aniqlanadi, ya'ni daromad ulushi sifatida hisoblangan soliqning o'rtacha to'liq miqdorini ifodalaydi. Bu holda daromad deganda yalpi daromad, ya'ni soliq chegirmalarisiz daromad tushuniladi.

Soliq solish muammolari va uning reproduktiv jarayonlar va iqtisodiy o'sishga ta'siri masalalariga bag'ishlangan zamonaviy adabiyotlarda "soliq yuki", "soliq og'irligi", "soliq zulmi", "soliq bosimi" va

⁵ O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri)

boshqalar atamaları juda faol qo'llaniladi. Shu bilan birga, mualliflarning fikrlari nafaqat ishlatilgan (qo'llanilgan) terminologiyada, balki juda muhim doirada to'ldirib turadigan mazmunli tarkibda ham farq qiladi.

Ma'lumki, soliq tushumlari miqdori soliq stavkalari va milliy daromad darajasiga bog'liq bo'lib, bu soliqlarning tartibga solish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning o'sishi bilan soliqlar avtomatik ravishda kamayib, daromadlar va sotib olish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi. Diskretsiyon bo'lmagan fiskal siyosat shundan iboratki, hukumat tomonidan ko'rilmagan maxsus, aniq choralar sharoitida soliqlar iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Keyns, shuningdek, aholi daromadlarining o'sishi natijasida ular "tejavahga moyilligi" ortib boradi, shuning uchun ortiqcha jamg'armalarni olib qo'yadigan va ularni davlat byudjeti orqali investitsiyalarga aylantiradigan soliq siyosati zarur.

Soliq yukini turli ijtimoiy guruhlar, ishlab chiqarish tarmoqlari, alohida korxonalar o'rtasida taqsimlash muammosi o'rganiladi. Ushbu maqsadlar uchun ilmiy adabiyotlarda soliq yukining bir qator xususiy ko'rsatkichlaridan foydalanish taklif etiladi:

- Soliq to'lovchining daromadlari summasidan xarajatlarni chegirgan holda to'langan soliqlarning umumiy miqdoriga nisbatini;

- Barcha hisoblangan soliqlar va soliq to'lovlari summasining sotish hajmiga nisbati;

- Tashkilotning ma'lum bir davr uchun jami soliq to'lovlarining shu davr uchun qo'shilgan qiymatdagi ulushini (Chernika, 1997);

- Soliq qonunchiligida soliqning turli elementlarini shakllantirish bo'yicha talablarini hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan yalpi daromaddagi hisoblangan soliqlarning ulushini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkich. Soliqning og'irligi nafaqat soliq yukini, balki soliq yukini kamaytiradigan yoki oshiradigan boshqa bilvosita omillarni ham hisobga oladi (Panskov, 2005);

- Muayyan soliq summasining va yoki guruhining soliq to'lash manbasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichga nisbatini.

Shu bilan birga, soliq munosabatlarining atributiv belgilaridan biri shundaki, ular soliqni to'lash evaziga davlat tomonidan bir vaqtning o'zida qarama-qarshi ekvivalent qiymat harakati bilan birga kelmaydi va soliq to'lovchi tomonidan ixtiyoriylik elementidan mahrum bo'ladi, shuning uchun ularning ishlashi bir qator obyektiv qarama-qarshiliklar bilan bog'liq bo'lib, ularning mazmuni ham soliq olib qo'yilganligi faktiga, ham uning nisbiy qiymatiga bog'liq. Shu munosabat bilan soliq yukini to'g'ri o'lchash, uni shakllantirishning asosiy omillari va optimallashtirish yo'nalishlarini aniqlash davlatlar va soliq to'lovchilar manfaatlarini uyg'unlashtirishning eng muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish hamda ular zimmasidagi soliq yukini aniqlash va baholash bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, soliq stavkalari va daromad manbalarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda soliq siyosatining samarali olib borish, xususan soliq siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan aholi daromadlarini kengaytirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida ko'plab vazifalar amalga oshirildi. Yangi tahrirdagi soliq kodeksi qabul qilinib, amaliyotga joriy etilishi natijasida ko'plab ziddiyatli, yechimi ochiq qolayotgan holatlar bartaraf etildi deyish mumkin.

Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilingunga qadar, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tabaqalashirilgan 4 ta stavkada soliqqa tortilgan bo'lsa, islohot natijasida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yagona 12 foiz stavkada soliqqa tortilishi belgilandi.


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxsning xar oyda 3,5 mln so'mdan hisoblangan ish xaqi 12 oy davomida 42 mln so'mni, hisoblangan daromad solig'i summasi 2018 yilda 7,1 mln so'mni, 2019 yilda boshlab qat'iy 12 foizlik stavkada 5 mln so'mni tashkil qilgan. Ushbu davrlar uchun soliq to'lovchi tomonidan jami to'lovlar summasi mos ravishda 10,5 mln so'm va 5 mln so'mga teng bo'lgan. E'tiborli jihati, 2019 yilga qadar fuqarolardan byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari undirilib kelingan bo'lsa, 2019 yildan boshlab mazkur majburiy badallar bekor qilindi.

1-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha taqqoslama jadval

№	Ko'rsatkich nomi	2018 yil	2019 yildan boshlab
1	Yillik yalpi daromad (hisoblangan ish haqi miqdori) summasi	42 000 000	42 000 000
2	Belgilangan stavka bo'yicha hisoblangan soliq, jumladan	7 124 760	5 040 000
2.1	I shkala bo'yicha	0	-
2.2	II shkala bo'yicha	620 064	-
2.3	III shkala bo'yicha	1 705 176	-
2.4	IV shkala bo'yicha	4 799 520	-
3	Pensiya jamg'armasi	3 360 000	-
4	Jami to'lovlar	10 484 760	5 040 000
5	Yalpi daromaddagi barcha soliqlarning ulushi	25%	12%

Natijada, yagona soliq stavkasining amaliyotga joriy etilishi hamda fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallarining bekor qilinishi soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukining sezilarli darajada kamayishiga yordam bergan.



1-rasm. 2018-2022 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari sonining o'sish dinamikasi (nafar)

Shu bilan birga, amalga oshirilgan amaliy harakatlar natijasida fuqarolarning o'z daromadlarini yashirishga bo'lgan rag'batlarini kamaytirilishiga erishildi deyish mumkin. Ayni holatda, ushbu soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar soni yil sayin ortib borayotganligi fikrimizga dalil bo'la oladi (2-rasm). Ya'ni, tahlil qilinayotgan davrda bu ko'rsatkich oshganligini ko'rish mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida 2019 yildan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida progressiv soliqqa tortish amaliyotidan proporsional soliqqa tortish tizimiga o'tilganligi va buning natijasida yashirin iqtisodiyot tarkibida faoliyat yuritib kelgan juda ko'p jismoniy shaxslar rasmiy iqtisodiyotga o'tganlari bilan izohlash mumkin (Vilkova, Romanovskiy, 2004).

Shuni alohida qayd etish kerakki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjet daromadlari manbalari tarkibida muhim ro'l o'ynaydi (2-jadval).

Jadval ma'umotlaridan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 2018 yilda 8,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 11,5 foizni tashkil etgan, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 12,0 foiz bo'lgan. Tahlil qilinayotgan davrda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi qariyb 1,5 barobarga oshgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushi dinamikasi

Davrlar	Soliq tushumi, mlrd so'm	Shundan		
		Mamlakat yalpi ichki maxsulotidagi ulushi	Jami byudjet daromatlari tarkibidagi ulushi	Bevosita soliqlar daromatlari tarkibidagi ulushi
2018 yil	6 422,70	1,6%	8,1%	41,0%
2019 yil	12 668,50	2,5%	11,3%	40,0%
2020 yil	15 140,80	2,5%	11,4%	33,5%
2021 yil	18 917,70	2,6%	11,5%	32,1%
2022 yil	24 284,50	2,7%	12,0%	37,7%

Shuningdek, aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va norasmiy bandlikni kamaytirish orqali qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli Qarori qabul qilindi. Qaror bilan norasmiy mehnat faoliyatini olib borayotgan jismoniy shaxslarning o'z daromadlarini legallashtirishga bo'lgan intilishlariga katta turtki bo'ldi deyish mumkin. Qaror bilan 70 dan ortiq faoliyat turlari ro'yxati tasdiqlangan. Bu bilan fuqarolarning soliq majburiyatlari sezilarli darajada kamaytirilib, ularning iqtisodiy manfaatlarini oshirildi. Quyida so'nggi o'zgarishlarni hisobga olgan holda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish va ular zimmasidagi soliq yukini tahliliy ko'rib chiqishga xarakat qilamiz. Tahlil xolisligi uchun 2022 yildagi shartli misollar keltiriladi (Qaror, 2020).

3-jadval

Jismoniy shaxslarning daromad manbalari kesimida soliqqa tortishning qiyosiy taqqoslama jadvali

Ko'rsatkichlar	1- Fuqaro	2- Fuqaro	3- Fuqaro	4- Fuqaro	5- Fuqaro
Daromad manbai	<i>Oylik maosh</i>	<i>Mulk ijarasi</i>	<i>YaTT, sartaroshlik xizmati</i>	<i>Ulush-dan dividend</i>	<i>O'zini o'zi band qilish, foto-video xizmati</i>
Yalpi daromad, ming.so'm	5 000,0	5 000,0	5 000,0	5 000,0	5 000,0
Qonunchilikka muvofiq bazaviy hisoblash miqdori, ming.so'm	270,0	270,0	270,0	270,0	270,0
Geografik joylashuvi	Toshkent shahri	Toshkent shahri	Toshkent shahri	Toshkent shahri	Toshkent shahri
Daromad solig'i stavkasi, (foiz yoki qat'iy miqdorda)	12,0%	12,0%	275 000 so'm	10,0%	-
Ijtimoiy soliq stavkasi, (foiz yoki qat'iy miqdorda)	-	-	270 000 so'm	-	270 000 so'm
Kalendar yil (12 oy) uchun jami hisoblangan daromad solig'i summasi, ming.so'm	7 200,0	7 200,0	3 300,0	6 000,0	-
Kalendar yil (12 oy) uchun jami hisoblangan ijtimoiy soliq summasi, ming.so'm	-	-	3 240,0	-	270,0
Jami majburiy to'lovlar summasi, so'm	7 200,0	7 200,0	6 540,0	6 000,0	270,0
Soliq yuki, foizda	12,0	12,0	10,9	10,0	0,5

Faraz qilaylik, 5 nafar fuqaro har birining oylik daromadi 5 mln so'mni tashkil qiladi. Ammo ular mazkur daromadni turli manbalardan qo'lga kiritishadi. Masalan, 1-fuqaro oylik maosh tarzida, 2-fuqaro o'z mulkini ijaraga berishdan, 3-fuqaro tadbirkorlik faoliyati, sartaoshlik xizmatlarini ko'rsatishdan, 4-fuqaro dividend shaklida, 5-fuqaro esa o'zini o'zi band qilish orqali video va fotosuratga olish xizmatlarini ko'rsatishdan mablag'larni jamlaydilar. Daromad turlarining har biri o'ziga xos usul va stavkalar asosida soliqqa tortiladi (3-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan bir xil miqdordagi daromadga nisbatan soliqlar hajmi va soliq undirilganidan keyin fuqarolar ixtiyorida qoladigan daromad miqdorini, shuningdek daromadlar soliqqa tortilishi natijasida ular xar birining soliq yuki turlicha ko'rinishga ega bo'lganligini anglash mumkin. Mazkur jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, umumiy holatda jismoniy shaxslarning turli shaklda oladigan daromad manbalari iqtisodiy jihatidan olib qaralganda soliq yuki soliq to'lovchilar o'rtasida bir tekis taqsimlanishiga erishilgan, bunda kam daromadli aholi qatlamiga tushadigan soliq yukini kamaytirish o'zini o'zi band qilish mexanizmini joriy qilish orqali ta'minlangan deyish mumkin.

Biroq, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki daromad manbalariga ega xar 5 nafar fuqarolar orasida o'zini o'zi band qilgan fuqaroning soliq yuki eng minimum miqdorni tashkil etgan. Albatta, o'zini o'zi band qilish mexanizmi vositasida kam daromadli aholi qatlamini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, norasmiy mehnat faoliyatini ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar daromadini qonuniylashtirish ko'zda tutgan bo'lsada, yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini o'zini o'zi band qilish faoliyati turlari bilan o'zaro solishtirgan holda qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq (4-jadval).

4-jadval

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qiladigan shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan faoliyat turlarining taqqoslama jadvali

Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari	O'zini o'zi band qiladigan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari
Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash	Aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha poyabzal tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta'mirlash	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta'mirlash
Kalitlar tayyorlash	Kalitlar tayyorlash
O'lchov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish	O'lchov vositalari tayyorlash va ijaraga berish
Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun'iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash	Gulchambarlar (shu jumladan, motam gulchambarlari), sun'iy gullar, ikebana, gul marjonlarini tayyorlash
To'siqlar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash	To'siqlar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash	Kesuvchi buyumlar va asboblarni charxlash
Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko'paytirish va sotish	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvonlarni ko'paytirish va sotish
Musiqqa asboblarini ta'mirlash va sozlash	Musiqqa asboblarini ta'mirlash va sozlash
Video va fotosuratga olish xizmatlari	Video va fotosuratga olish xizmatlari
To'garaklar tashkil etish va yuritish	To'garaklar tashkil etish va yuritish
Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san'ati)	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish (shu jumladan bonsay san'ati)

Salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o'tirish joylari tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish	Salatlar va tuzlamalarni tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitida donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash va o'tirish joylarini tashkil etmasdan yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda sotish
Metallni ta'mirlash ishlari (uy sharoitida metallardan tayyorlangan maishiy buyumlarni ta'mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta'mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarni oddiy ta'mirlash)	Metall ta'mirlash ishlari (uyda amalga oshiriladigan maishiy metall buyumlarini ta'mirlash (kalitlarning dublikatlarini tayyorlash, soyabonlarni ta'mirlash, boshqa maishiy metall buyumlarini oddiy ta'mirlash)
Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar	Sartaroshlik xizmatlari, manikyur, pedikyur xizmatlari
Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo'lda bo'yash, gazlamalarga, shu jumladan trafaretli bosma va qo'lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)	Gazlamalarga naqshlar solish (gazlamalar va kiyim ashyolarini qo'lda bo'yash, gazlamalarga, shu jumladan trafaretli bosma va qo'lda rasm chizish usuli bilan rasmlar solish)
Kir yuvish, quruq va kimyoviy tozalashni tashkil etish, shuningdek, dazmollash xizmatlari	Uyda kir yuvish va dazmollash xizmatlari
Ijtimoiy xizmatlar (bolalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)	Bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo'yicha jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar
Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini va to'qimachilik galantereyasidan buyumlarni tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalarini tikish, kashtachilik	Galantereya buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash
Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari	Tarjima qilish xizmatlari (badiiy adabiyotni tarjima qilish, texnik tarjima, veb-saytlar, filmlar, kompyuter va mobil ilovalar, taqdimotlar, video, audio va reklamalar tarjimasini)
Rieltorlik faoliyati	Rieltorlik xizmatini ko'rsatish (ijaraga uy topib berish, uy sotib olish va sotishga ko'maklashish)
Aholi uchun turar va noturar joylarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	Jismoniy shaxslarga murakkab bo'lmagan umumiy qurilish, qurilish-ta'mirlash ishlari (beton quyish, bo'yoqchilik, suvoqchilik ishlari, g'isht va kafel terish, perforatsiya, duradgorlik, chilangarlik va boshqa umumiy qurilish ishlari)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-sonli qaroriga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qaroriga asosan esa o'zini o'zi band qiladigan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxati tasdiqlangan (Qaror, 2020). Xar ikkala normativ hujjatlarda ayni bir faoliyat turi yoki nisbatan o'xshash bo'lgan faoliyat turlari keltirilgan (4-jadval). Soliqqa tortish nuqtai nazaridan olib qaralganda, bu xolat ijobiy baholanmaydi. Boisi, yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan o'zini o'zi band qiladigan shaxslarni soliqqa tortish amaliyoti hamda ularning soliq yuki darajasi tubdan farq qiladi (5-jadval).

Yakka tartibdagi tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan shaxs daromadlarini soliqqa tortishning qiyosiy solishtirma jadvali

Ko'rsatkichlar	Yakka tartibdagi tadbirkor	O'zini o'zi band qilgan shaxs
Faoliyat turi	<i>To'garaklar tashkil etish va yuritish</i>	<i>To'garaklar tashkil etish va yuritish</i>
Kalendar yil (12 oy) uchun yalpi daromad, so'm	85 000 000	85 000 000
Soliq bazasidan chegiriladigan xarajatlar summasi, so'm	23 500 000	23 500 000
Soliq solinadigan baza, so'm	61 500 000	61 500 000
Qonunchilikka muvofiq bazaviy hisoblash miqdori, so'm	270 000	270 000
Geografik joylashuvi	Toshkent shahri	Toshkent shahri
Daromad solig'i stavkasi	12,0%*	-
Ijtimoiy soliq stavkasi, (foiz yoki qat'iy miqdorda)	270 000 so'm	270 000 so'm
Kalendar yil (12 oy) uchun jami hisoblangan daromad solig'i summasi, so'm	7 380 000	-
Kalendar yil (12 oy) uchun jami hisoblangan ijtimoiy soliq summasi, so'm	3 240 000	270 000
Jami majburiy to'lovlar summasi, so'm	10 620 000	270 000
Soliq yuki, foizda	12,49	0,32

* yakka tartibdagi tadbirkor daromadi deklaratsiya asosida soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar har oyda qat'iy belgilangan miqdorlardagi soliqlarni yoki tadbirkorlik faoliyatidan olingan haqiqiy daromadi bo'yicha ushbu daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar summasini chegirib tashlagan holda doimiy yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasiga deklaratsiya topshirish yo'li bilan daromad solig'ini to'lashi, shuningdek, ijtimoiy soliqni har oyda bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to'lashi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qaroriga asosan o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari jismoniy shaxslar jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi belgilangan. O'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliq summasining eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari etib belgilangan (Qaror, 2020).

Maskur holatlarni ko'rib chiqib aytish mumkinki, o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish, xususan ushbu toifadagi shaxslarning yillik daromadi 100 mln so'mdan oshgan taqdirda, ularga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o'rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotini joriy qilish tavsiya etiladi. Bu esa, soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini adolatli taqsimlash, byudjet daromadlarini qo'shimcha manbalar bilan ta'minlash hamda soliq to'lovchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, jismomiy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlarini soliqqa tortishda ham umumiy tenglikni saqlab qolishga erishilgan. Bunda ular daromadlarining soliqqa tortilishi qat'iy belgilangan miqdorda va (yoki) deklaratsiya topshirish yo'li bilan daromad solig'ini to'lash bo'yicha tanlash huquqining mavjudligi soliq yukini minimallashtirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, soliq yukini minimallashtirish haqida gap ketganda, soliq imtiyozlarini qayd etib o'tish muhim ahamiyatga ega. Boisi, jismoniy shaxslar tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llash ularning soliqlardan keyin ixtiyorida qoladigan mablag'larining jami daromadlariga nisbatan salmog'i oshishiga xizmat qiladi (6-jadval).

2018-2022 yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari tahlili

Davrlar	Hisoblangan soliq summasi, mlrd so'm	Soliq imtiyozidan foydalangan jismoniy shaxslar soni	Qo'llanilgan soliq imtiyozlari summasi, mlrd so'm	Davlat byudjetiga undirilgan soliq summasi, mlrd so'm
2018 yil	7 459,2	8 321,0	393,1	6 423
2019 yil	13 470,9	33 866,0	789,0	12 669
2020 yil	14 415,2	44 093,0	917,9	15 141
2021 yil	19 518,3	56 165,0	1 073,8	18 918
2022 yil	24 971,2	41 580,0	1 028,3	24 285
Jami	79 834,8	184 025,0	4 202,1	77 434,2

Ko'rib chiqilayotgan davrda, jami 184 025 nafar jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha imtiyozlardan foydalanishgan. Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari bo'lgan fuqarolardan 2018 yilda 4 281,2 ming nafaridan – 8,3 mingtasi, 2019 yilda 4 686,2 ming nafaridan – 33,9 mingtasi, 2020 yilda 4 819,5 ming nafaridan – 44,1 mingtasi, 2021 yilda 4 789,1 ming nafaridan – 56,2 mingtasi, 2022 yilda 5 018,0 ming nafaridan – 41,6 mingtasi imtiyozdan foydalanishgan. 2018–2022-yillar davomida ularning umumiy imtiyoz summasi 4 202,1 mlrd so'mga yetib, jami hisoblangan soliq summasining 5,3 foizini yoki soliqqa tortiladigan daromadlari umumiy summasining qariyb 0,6 foizini tashkil qilgan. Shunga qaramay, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha hisoblangan soliqlar hamda qo'llanilgan imtiyozlar summasi ushbu yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, 2018–2022-yillar oralig'ida imtiyoz summalari hisoblangan soliq summalarga nisbatan 2019 yilda avvalgi yilga nisbatan – 11 foizga o'sish, 2020 yilda avvalgi yilga nisbatan – 9 foizga o'sish, 2021 yilda avvalgi yilga nisbatan – 14 foizga kamayish, 2022 yilda esa avvalgi yilga nisbatan – 25 foizga kamayishi kuzatilgan. Ushbu holat mazkur soliq turi bo'yicha yildan yilga soliq imtiyozlari sonining qisqartirib borilayotganligidan yohud jismoniy shaxslarning imtiyozlarni qo'llash bo'yicha zarur ma'lumot va bilimlarning yetishmasligi natijasida mavjud imtiyozlardan to'liq foydalana olmaslik holatlari ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, soliqlar har bir mehnat qiluvchi ishchining peshana terisi bilan to'lanadi. Agar bu soliqlar haddan tashqari yuqori bo'lsa, bu fabrikalarning to'xtashiga, soliqni to'lash uchun fermalarning sotilishiga va och odamlar ko'chalarda daydib, behudaga ish qidirishlariga olib keladi (Franklin, 1932). Agar daromadning katta qismi yuqori soliq stavkasini to'lashga yo'naltirilsa, ishlashga va resurslardan samarali foydalanishga rag'bat pasayadi, yoki aksincha agar daromadlarining kattaroq qismi o'zlarida qolsa, odamlar ko'proq ishlashga, ko'proq ishlab chiqarishga intiladilar. Soliq tufayli o'zgarigan rag'batlar behuda isrofgarchilikka va iqtisodiy samarasizlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Qayd etish kerakki, soliq tizimi bo'yicha, xususan jismoniy shaxslar soliq yukini optimallashtirishga bo'lgan ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida soliq yukini tahlil qilish natijalaridan soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liq bir qator xulosalar chiqarish mumkin. Ushbu yo'nalishlarga o'z nuqtayi nazarimizni ifodalab, quyidagi taklif va fikrlarni ilgari suramiz:

Birinchiidan, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish barcha uchun teng va yakdil holda bo'lishi, ayniqsa, kam daromadli aholi qatlamini iqtisodiy qo'llab quvvatlash maqsadida ijtimoiy tenglik tamoyillarini inobatga olib, soliqqa tortilmaydigan minimum miqdorlarni asta-sekin va bosqichma-bosqich joriy qilish bilan ular zimmasidagi soliq yukini kamaytirish zarur.

Ikkinchiidan, soliq to'lovchilar tomonidan daromadlarni yashirish va ularga soliq yukidagi farq omili ta'sirida mablag'larni daromadning bir shaklidan ikkinchisiga sun'iy ravishda o'tkazilishining oldini olish uchun daromadlarning bir-xilda soliqqa tortilishini ko'zda tutish, ayniqsa, qonunchilik talablaridan kelib chiqib yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini o'zini o'zi band qilish faoliyati turlari bilan o'zaro solishtirish orqali qayta ko'rib chiqish, bir-birini

takrorlovchi, aynan o'xshash faoliyat turlarini biridan olib tashlash, ikkinchisiga qo'shib yuborish orqali normativ xujjatlarni tartiblash kerak.

Uchinchidan, soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini adolatli taqsimlash, byudjet daromadlarini qo'shimcha manbalar bilan ta'minlash hamda soliq to'lovchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar daromadlarining soliqqa tortilishi, xususan ushbu toifadagi shaxslarning yillik daromadi 100 mln so'mdan oshgan taqdirda, ularga nisbatan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o'rnatilgan tartibda soliqqa tortish amaliyotining tadbiriq etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, soliq to'lovchilarning turli darajadagi daromadlarini hisobga oladigan soliq tizimlarini ishlab chiqish orqali siyosatchilar iqtisodiy tenglikni oshirishga va daromadlar tengsizligini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligini kamaytirmaslik, qolaversa, soliqqa tortish prinsiplariga muvofiq soliq yukini teng taqsimlash orqali barcha uchun bir xil raqobat sharoitini yaratishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Literature:

Chernika D.G. (1997) "Soliqlar" / D. G. Chernika tahriri ostida - M. Moliya va statistika., - 16 bet.

Franklin D. Ruzvelt (1932), AQSh, Pensilvaniya shtati, Pitsburg shahri, 19-oktabr.

Mahkamov B., Turaev Sh. "Directions for optimizing the tax burden in the economy" - B. Mahkamov, Sh.Turaev Primedia E-launch Shawnee, USA 2023. 135-bet.

Panskov V.G. (2005) "Rossiya Federatsiyasining soliqlari va soliq tizimi" / V. G. Panskov. Darslik.-M.: Moliya va statistika, 93-bet.

Qaror (2011) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-sonli Qarori

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-sonli Qarori

Vilkova S. E., Romanovskiy M.V. (2004) "Soliqni rejalashtirish" / S. E. Vilkova, M. V. Romanovskiy. SPb., Piter, 476-bet.